



THE TURKISTAN JADID MOVEMENT AND THE ENLIGHTENMENT ACTIVITIES OF SADRIDDIN AYNI AND MUNAVVAR QORI ABDURASHIDKHANOV

A. I. Murodov

Doctor of Philosophy (PhD), Acting Associate Professor

“Tashkent International University”

International University, Department of Social Sciences and Education

adhammurodov05@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkistan Jadid movement, Munavvar Qori Abdurashidkhanov, Sadridin Ayni, enlightenment, Jadid schools, new-method education, young Bukharans, educational reform, pedagogical activity, science and enlightenment.

Abstract: the article analyzes the Turkistan Jadid movement and the activities of its leading figures, particularly Munavvar Qori Abdurashidkhanov and Sadridin Ayni. They made significant contributions to transforming young people into educated specialists, establishing new-method schools, and promoting enlightenment. The article highlights the importance of Jadid schools for societal progress.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI VA SADRIDDIN AYNIIY HAMDA MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOVNING MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI

A.I.Murodov

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrasida

p.f.f.d. (PhD), v.b., dotsent

adhammurodov05@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Turkiston jadidchilik harakati, Munavvar Qori Abdurashidxonov, jadidchilik harakati va uning yetakchi

Annotatsiya: Maqolada Turkiston

Sadriiddin Ayniy, ma'rifatparvarlik, jadid maktablari, yangi usul ta'limi, Yosh buxoroliklar, ta'lim islohi, pedagogik faoliyat, ilm-ma'rifat.

vakillari, xususan Munavvar Qori Abdurashidxonov hamda Sadriiddin Ayniy faoliyati tahlil qilinadi. Ular yoshlarni bilimli kadrlarga aylantirish, yangi usul maktablarini tashkil etish va ma'rifatparvarlikni targ'ib qilishga katta hissa qo'shgan. Maqolada jadid maktablari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan.

**ДВИЖЕНИЕ «ТУРКИСТАН ДЖАДИДИЗМ» И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САДРИДДИНА АЙНИ И МУНАВАР КОРИ
АБДУРАШИДХОНОВА**

А. И. Муродов

«Ташкентский международный университет»

Международный университет, кафедра социальных наук и образования

Доктор философии (PhD), исполняющий обязанности доцента

adhammurodov05@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: движение «Туркистан джадидизм», Мунавар Кори Абдурашидхонов, Садриддин Айни, просвещение, джадидские школы, образование нового типа, молодые бухарцы, образовательная реформа, педагогическая деятельность, просвещение.

Аннотация: в статье анализируется движение «Туркистан джадидизм» и деятельность его ведущих представителей, в частности Мунавар Кори Абдурашидхонова и Садриддина Айни. Они внесли значительный вклад в превращение молодежи в образованные кадры, создание школ нового типа и популяризацию просвещения. В статье освещается значение джадидских школ для прогресса общества.

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan jadidchilik harakati asr oxiriga kelib ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, bugungi kunda mazkur masalaning ko'plab ilmiy tadqiqotlar ob'ekti sifatida o'rganilishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida jadidchilik harakatini xolis va adolatli yondashuv asosida tadqiq etish, unga ilmiy baho berish borasida salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Ta'kidlash joizki, Turkiston jadidchilik harakatini turli ilmiy yo'nalishlar va rakurslarda o'rganish imkoniyati mavjud bo'lib, bu jarayonda tarixchi, adabiyotshunos hamda faylasuf olimlar tomonidan qator ilmiy maqolalar va risolalar nashr etildi. Shu bilan birga, jadidchilik harakatining ilmiy-ma'rifiy merosini pedagogik nuqtayi nazardan, xususan, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid g'oya va qarashlar asosida tizimli va maxsus tadqiq etish masalasi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib, chuqur ilmiy o'rganishni talab etadi.

Asosiy qism. Albatta, Talabalarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda kelajak kasbiy faoliyatiga yo'naltirish masalalari pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi, avvalo, faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasida tayyorlanadigan mutaxassislik yo'nalishlarini inobatga olgan holda, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida differensial ta'limni samarali tashkil etishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, jadidchilik harakatining shakllanish jarayoni, mazmun-mohiyati va g'oyaviy asoslarini chuqur anglab olishni taqozo etadi.

Shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida jadidlarning tutgan o'rni va bajargan roli alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Jadidlar jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yangiliklarni ehtiyotkorlik, sabr-toqat va izchillik bilan o'zlashtirishga intildilar. Natijada mazkur jarayon Turkistonda vujudga kelgan yangi ijtimoiy-ma'rifiy harakat - jadidchilik harakati sifatida shakllanib, keng e'tirof etila boshladi.

Bu davrga kelib, Turkiston madrasalaridagi ta'lim-tarbiya tizimining ahvoli tobora murakkablashib, mavjud maorif tizimi jamiyatning real ehtiyojlariga javob bermay qolgani yaqqol namoyon bo'ldi. An'anaviy ta'lim muassasalari nafaqat taraqqiyot talablaridan ortda qolgan, balki oddiy savodxonlikni ta'minlash borasida ham o'z imkoniyatlarini yo'qotgan edi. Bir paytlar o'qitish sifati bilan mashhur bo'lgan Buxoro madrasalari ham mazkur davrga kelib o'z nufuzini asta-sekin yo'qota boshlaganligi kuzatildi.

Ma'lumki, "jadid" atamasi arab tilidan olingan bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. XX asr boshlarida milliy matbuot nashrlari va yangi usuldagi maktablarning paydo bo'lishi bilan mazkur tushuncha keng qo'llanila boshladi. Milliy gazetalarni o'qigan yoki yangi usul maktablarini tashkil etgan shaxslar oddiy xalq nigohida "jadid" sifatida qabul qilindi. Chunki yangi usul maktablari an'anaviy madrasa va eski maktablardan zamonaviyligi, dunyoviy fanlarga ustuvor ahamiyat berilishi bilan tubdan farq qilardi. Umuman olganda, jamiyat hayotiga yangicha fikrlash, ilg'or g'oyalar va yangi tarixiy davr ruhini olib kirishga intilgan shaxslar jadidlar sifatida e'tirof etildi. Natijada "jadid maktabi", "jadid matbuoti", "jadid adabiyoti" kabi tushunchalar ilmiy va ijtimoiy muomalaga kirib keldi.

Shu sababli Turkiston maktab va madrasalarida o'rta asrlarga xos bo'lgan an'anaviy o'qitish usullari o'sha davr adabiyotlarida "igna bilan quduq qazishga" qiyoslangan. Ta'lim jarayonining izchil va mukammal tizimga ega emasligi o'lkada savodsizlikning keng tarqalishiga olib kelgan bo'lib, bu holat jamiyat va mamlakat taraqqiyotini jiddiy ravishda sekinlashtiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Mavzuga oid manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati o'zining tub mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega

bo'lgan harakat sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu harakat dastlab ta'lim sohasini isloh etish, maktab va madrasalar faoliyatini tubdan yangilash, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablariga mos ravishda qayta tashkil etish hamda millatning ma'naviy uyg'onishini ta'minlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan edi.

Turkiston jadidchilik harakatining yetuk namoyandalari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov mintaqa jadidlarini birlashtiruvchi yetakchi kuch sifatida faoliyat yuritganlar. Shuningdek, Buxoro hududida Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida Polvonniyoz Yusupov, Kattaqo'rg'on vohasida esa Abduqodiriy Shakuriy jadidchilik harakatining rivojiga boshchilik qilgan ilg'or ziyolilar sifatida e'tirof etiladi.

Xususan, Buxoro jadidchilik va taraqqiyparvarlik harakatining yirik vakili Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886–1938)ning g'oyaviy qarashlari va ijodiy merosini tahlil qilish orqali uning pedagogik va ma'rifiy yo'nalishdagi intilishlari yaqqol namoyon bo'ladi. Fitrat "Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning usuli jadida xususida qilg'on munozarasi" (1909, Istanbul), "Hind sayyohi bayonoti" (1912), "Rahbari najot" (1913), "Oila" (1916, Boku) kabi asarlari hamda she'riy ijodi orqali jadidlarning ma'rifatparvarlik, taraqqiyot va yangilanish g'oyalarini keng targ'ib qilgan. Mazkur masala yuzasidan Fayzulla Xo'jayev o'z asarlarida alohida to'xtalib, Fitrat ijodida Turkistonni milliy uyg'onish va mustaqillikka yetaklovchi ilg'or g'oyalar izchil ilgari surilganini ta'kidlab o'tgan. .

Masalan, Fitrat o'z asarlarida jamiyatdagi illatlarni tanqid qilib, ulardan qutilish yo'llarini ko'rsatishga intilgan. Uning "Munozara" asarida Buxoroda faoliyat yuritgan yosh taraqqiyparvarlarning maqsad va vazifalari aniq ifoda etilgan. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid matbuotida keng va qamrovli munozaralarga sabab bo'lgan. Turkiston maktablari qanday shakllanishi, ular qaysi yo'nalishda rivojlanishi zarur degan savollar o'z davri mualliflarining diqqat markazida bo'lgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov asrlar davomida hukm surib kelgan maktab va madrasalardagi an'anaviy o'qitish tizimini isloh etishni ilgari surgan. U ta'kidlaganidek, maktablarda hali bolaning tushunish darajasiga mos kelmaydigan Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz va Bedilning muhabbat haqidagi she'rlari o'qitilgan. Abdurashidxonov fikricha, "bir bolaga Fuzuliy o'rniga ilmi qiroat, Navoiy o'rniga masoili e'tiqodiya, Xo'ja Hofiz o'rniga masoili amaliyot, Bedil badalig'a ilmi hisob o'qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilgan bo'lardi". Shu bilan birga, balog'atga yetmagan bolalar bunday falsafiy mazmuni anglay olmasligi, hattoki ularni o'qitgan domlalar ham tushunmasligi natijasida ushbu asarlar "johil domlarni ta'limi falonni qoshi qora, ko'zi qora, yuzi oq, so'zi shirin, deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on" holatiga kelib qoladi, deya ta'kidlagan. Shu bois, uning

fikricha, bolalarga matematika, geografiya, islom tarixi kabi dunyoviy va diniy fanlarni o'qitish ancha samarali bo'ladi.

Buxorodagi jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri, yangi usul maktablarini ochish bo'yicha birinchi tashabbuskorlardan hisoblangan ma'rifatparvar adib Sadridin Ayniy (1878–1954)ning hayoti va ijodiy merosi alohida ahamiyatga ega. Uning “Tarixi amironi mang'itiyai Buxoro” (“Buxoro mang'it amirlari tarixi”) va “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kabi tarixiy asarlari hamda ayrim ilmiy-publisistik maqolalarida Buxoro jadidlari tomonidan tashkil etilgan, iste'dodli yoshlarni birlashtirgan “Yosh buxoroliklar” tashkilotining Buxoro maorifparvarlik va taraqqiyparvarlik tarixidagi o'rni, namoyandalari hamda uning siyosiy va ijtimoiy faoliyati haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Mashhur olim Sadridin Ayniy ilm-ma'rifatga bo'lgan intilishi tufayli eski maktablar va an'anaviy ta'lim usullaridan qoniqmay, Buxoro madrasalarida tahsil olishni davom ettirdi. Ayniy o'ttiz yilga yaqin (1889–1917) Buxoro shahrida yashab, ko'plab tarixiy voqealarning jonli guvohiga aylangan. U Buxoro xalqining madaniy urf-odatlarini, san'ati, tarixi, hunarmandchiligi va savdo-sotig'ini yaqindan o'rgandi. Shuningdek, madrasalarda ilm oluvchi talabalar turmush tarzi, o'quv jarayoni va kutubxonalar bilan tanishdi.

Ma'rifatparvar olim o'sha davr Buxoroning mashhur madrasalarida tahsil olgan: Miri Arab (1890–1891), Olimjon (1892–1893), Badalbek (1894–1896), Hoji Zohid (1896–1899) va Ko'kaldosh (1899–1900). Ammo, madrasalardagi o'quv dasturi va o'qitish uslublari uning talablariga javob bermagani sababli, Ayniy mustaqil ravishda adabiyot, tarix va boshqa fanlarni o'rganishga kirishgan. U o'z asarlarida yozishicha: “Buxoro madrasalarida haftada to'rt kun — shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari dars bo'lib, qolgan uch kuni dam olish bo'lardi”.

O'z davrida Sadridin Ayniy zamondoshlari va safdoshlari tomonidan “Yosh buxoroliklar” harakatidagi faol ishtiroki hamda maorif va madaniyat sohasidagi xizmatlari bilan munosib e'tirof etilgan. Shu jihatdan, Muhammad Ali Baljuvoni shunday yozadi:

“Buxoro maxdumzodalaridan Mullo Muin maxzum, Mullo Muhiddin maxzum Buxoroi asl, Mullo Mukommil maxzum, Muhiddin qozi Abdulhakim Boysuniyning o'g'li, Qori Yo'ldosh Karkigi maxzum, Mullo Rafiq maxzum, Mullo Abdurauf maxzum Fitrat, Muzahhar maxzum Buxoriy, Sadridin – Ko'kaldosh masjidining imomi – taxallusi Ayniy Xoja Jahoniy – bular Buxoroning maxdumzodalari va olimlaridan bo'lib, sonlari taxminan 222 nafarga yetardi.”

Ushbu ma'lumot Sadridin Ayniy va uning zamondoshlari Buxoro olimlar va maorifparvarlar orasida qanchalik e'tirof etilganligini yaqqol ko'rsatadi. .

S.Ayniyning jadid maktablari uchun yozgan “Tartil-ul Qur'on” (“Qiroat kitobi”), “Zaruriyoti diniya” (“Diniy kitob”) va “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli o'qish kitoblari birinchi marta 1909 yilda Orenburgda nashr etiladi. Ayniy “Tahsib us-sibyon” darsligini

Ismoil Gasprinskiyning “Xo‘ji sibyon” (“Bolalar muallimi”) kitobi ta’siri ostida yozgan. Bu kitob 1917 yilda Samarqandda “Ma’rifat kutubxonasi” tomonidan (1914 yilda yosh buxoroliklar tomonidan tashkil etilgan) tomonidan ikkinchi marta nashr etiladi. Yosh buxoroliklar tashkiloti 1910 yil “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyati shaklida tuzilgan. Uning safida mahalliy xalq farzandlari, savdogarlar, ziyolilar, mudarrislar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirgan edi.

1910 yilning ramazon oyigacha, Yosh buxoroliklarning “Tarbiyai atfol” jamiyatiga, Mirzo Izatullo, Porsoxoja, Hoji Hamroh Yo‘ldosh o‘g‘li, Ahmad Kamol, Fazliddin-maxdum, Mirzo Nazrullo, Hoji Abdusattor, Hakimjon-maxdum, Mirzo Po‘lod, Salimjon, Muhammadnazar-maxdum, Mazhar-maxdum va Sadridin Ayniy a‘zo bo‘lib kirgan. “Har kim ham o‘sha davrda “Tarbiyai atfol” jamiyatimizga kirgan bo‘lsalar ham, lekin jamiyatning daftari qo‘limda yo‘q, shuning uchun ham jamiyatga a‘zo bo‘lganlarning har qadamgi tarixini aniq yozib bilmadim” , deb yozadi Ayniy.

Jadid ma’rifatparvarlarining bilimdonlaridan biri bo‘lgan Munavvar Qori Abdurashidxonov ham o‘z faoliyati davomida chet elga bolalarni o‘qishga yuborish, ularga ilm-ma’rifatli bo‘lishda ko‘maklashish masalalariga ham e’tibor qaratgan. U ko‘p marotaba mahalliy boylar va ziyolilar bilan majlislar o‘tkazib, yoshlarni xorijga yuborish, ularni ilmi qilish va jamiyatimizning yetuk kadrlari etib tayyorlash masalalarini ilgari surgan. Misol uchun, 1916 yil o‘rtalarida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy hamda aka-uka Komilbek va Karimbek Norbekovlar tashabbusi ostida “Muallimlar jamiyati”ga asos solingan. Jamiyatning asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan chet el oliy o‘quv yurtlariga yuborish, vatanimizda kelgusida ochilajak oliy o‘quv yurti uchun zamonaviy oliy ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassis pedagoglar tayyorlash, jadid maktablarini tashkil etish va ular uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar nashr etish hisoblangan.

Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro‘ qozondilar. Jadid maktablari qat’iy nizom, dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo‘lib, jadidlar o‘quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo‘yishni joriy etdilar. O‘quvchilar sinfdan-sinfga o‘tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirganlar .

Tarixga nazar solsak, maktab-madrasa ta’limi tizimini isloh etish g‘oyasining ilk kurtaklari Turkistonda XIX asrning birinchi yarmida paydo bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. Bu masalada ilk bor qalam tebratgan tarixchi olim Marjoniy bo‘lsa, buxorolik faylasuf Abu Nasr al Kursaviy o‘rta asrga xos islomshunoslik ilmining bir qator qotib qolgan qarashlarini inkor qilib chiqdi. Dunyoviy taraqqiyot, ilm-fan yangiliklarini qo‘llab-quvvatlab chiqqan Axxmad Donish esa

Samarqand va Buxorodagi maorif tizimini isloh etish masalasini ko'tarib chiqqan ma'rifatparvar sifatida Turkiston maorifi tarixida o'z o'rniga ega .

Yangicha o'qish albatta o'zida yangilikni mujassam etgan yoshlarni tarbiya topishiga olib keladi. Yangicha tarbiya topgan yoshlarni shakllantirmoq uchun esa ishni maktab islohotidan boshlash o'sha davr uchun zaruriyat edi.

Maktab ta'lim tizimi islohotining zarurligini izohlarkan, Munavvarqori: "...ongda, fikrlashda, maorifda o'zgarish qilmay turib, siyosatda o'zgarish qilib bo'lmasdi. Vijdonni uyg'otmay turib, g'aflatdan qutilib bo'lmasdi. Dushmanni yengish, o'zini har jihatdan himoya qilishning eng asosiy quroli ma'rifatli odamlardan tashkil topgan yangi jamiyatni tashkil qilish edi. Bunga esa maktab va madrasa tizimida inqlob yasamay turib erishish mumkin emasdi" , deya xotirlaydi.

Shu tariqa taqdir taqozosi bilan maktab-madrasa islohoti ijtimoiy-ma'rifiy islohot sifatida jadidlar faoliyati bilan boshlandi.

Xulosa. Turkiston jamiyatidagi mavjud madaniy-ma'rifiy qoloqlikdan chiqishning yagona yo'li sifatida o'qitishning yangi tartibdagi usuli o'lka hayotiga kirib kela boshladi. XIX asr oxirida joriy etila boshlagan yangi usuldagi maktablar chor hokimiyatining va mahalliy ulamolarning qattiq qarshiligiga uchrab birin-ketin yopila boshladi. Jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan jadid maktablariga muxolifat kuchlar qanchalik qarshilik ko'rsatmasinlar, XX asr boshlariga kelib, bu maktablarning soni shunchalik tez ko'payib ketdiki, chor ma'murlari birini yopsa, ikkitasi ochilar, mahalliy reaksiyon ulamolarning qarshiligi ham ko'p hollarda endi avvalgiday ish bermay qoldi.

XX asr boshlarida inqilobiy isloh hisoblangan bu ishga Turkistonda mahalliy xalq vakillaridan hammadan avval jadid Saidrasul Saidazizov va Munavvarqori Abdurashidxonov kirishganlar, ular o'z yo'l-yo'riqlarini "usuli savtiya" deb nomlaganlar.

"Usuli savtiya" jadid maktabiga dastlabki tamal toshini qo'ygan jadidlar qatoriga Ishoqxon Ibrat, Salohiddin domla, Mannon Qori, Shamsuddin domla, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy singari jadid ma'rifatparvarlarini ham kiritishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, jadidlarning barchasi ma'rifatparvarlik yo'lida mislsiz harakat qilganliklari va jonlarini fido qilganliklarining guvohi bo'lamiz. Jumladan, Ishoqxon Ibrat o'lkamizdagi ilk matbaachilardan biri sifatida, 1908 yilda Orenburg shahridan litografik mashina sotib oladi va uni Orenburgdan Qo'qongacha poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'ongacha tuyalarda ortib, katta mashaqqatlar bilan olib keladi va o'z hovlisida "Ishoqiya bosmaxonasi"ni tashkil qiladi. Bu bosmaxona 1960 yilgacha faoliyat yuritib kelgan .

Jadid maktablari safi kengayib bordi va "usuli jadid" deya nom olgan yangi usul maktablari tez orada Turkiston o'lkasining deyarli barcha hududlarida faoliyat yurita boshladi.

Darhaqiqat, jadid maktablari Buxoroda (I. Gaspirali rahbarligida, 1893 y.), Qo‘qonda (Salohiddin domla rahbarligida, 1898 y.), Toshkentda (Mannon Qori rahbarligida, 1899 y.), Andijonda (Shamsuddin domla rahbarligida, 1899 y.), Samarqandda (Abduqodir Shakuriy rahbarligida, 1901 y.) kabi maktablarni misol sifatida keltirish mumkin

Taklif. Biroq, ular tomonidan tashkil etilgan maktablar bir qator o‘ziga ijobiy xususiyatlarga egaligi tufayli yangi avlod tarbiyasida munosib rol’ o‘ynadi. Jumladan, mazkur maktablarning quyidagi jihatlarini keltirib o‘tish mumkin:

- asosan boshlang‘ich va o‘rta ta’lim berishga asoslangan maktablarda jadidlar rivoyatlarini keltirib o‘tish.

- Jadidlar davrida dunyoviy fanlarga katta ahamiyat berilgani holda diniy fanlar ham o‘qitilishiga e’tibor qaratish;

- talabalarning mustaqil fikrlashlariga alohida e’tibor qaratilgan Jadidlar ma’rfatparvarlik audio, video m’lumotlardan unumli foydalanish;

- ilm olgan o‘quvchilar mustaqil faoliyat yurita olgan talabalar bilimi nazorat-tahlil qilishda jadidlar pedagogik nazorat mexanizmidan foydalanish;

yoshlarning fan-texnika yangiliklarini egallashi, uni o‘zlashtirishi, millat manfaatini himoya qilishi uchun eng avvalo rus va boshqa xorijiy tillarni o‘rganish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, yangi usul maktablarini tashkil etish oson bo‘lmagan. Bir tomondan, mustamlakachilar va mahalliy jaholatparast ulamolar doim nazorat va ta’qib etib tursa, ikkinchi tomondan, maktab faoliyati uchun zarur mablag‘ni topish kerak bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T. “O‘zbekiston”, 2017. – B. 74.
2. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: 2010. – B. 2-3. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. T.: “TURON-IQBOL”. 2010. – B. 22.
4. Xo‘jayev F. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. Toshkent-Samarqand: O‘zdavnashr, 1926. – B. 77.
5. Fitrat. Hind sayyohi bayonoti // Tanlangan asarlar. 1-jild. - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000. – B. 98-168.
6. Ayniy S. Tarixi amironi mang‘itiyai Buxoro. – Toshkent: Turkiston davlat nashriyoti, 1923.

7. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – Moskva: SSSR xalqlari markaziy nashriyoti, 1926.
8. Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim. / Asarlar. 8 jildjik. 1-jild. T: O‘zdavnashr, 1963. – B. 37.
9. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi nofeiy (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so‘z boshi va izohlar mualliflari SH.Vohidov, Z.CHoriyev. – T: Akademiya, 2001. – B. 53 – 54.
10. O‘zbekiston tarixi II – jild (XIX asr II yarmi – 1991 yil avgust). (Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik). Mas’ul muhar. T.f.d.prof. R.H.Murtazayeva . – T.: 2015. – B. 163.
11. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. - T.: “Ma’naviyat”, 2003. – B.